

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 5



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1	Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....	7
2	Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUJJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....	13
3	Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....	15
4	Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN’ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	19
5	Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ҲАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	23
6	Narziyeva Inobat Zoirovna. O‘ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....	27
7	Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE’RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....	31
8	Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОВА.....	36
9	Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....	42
10	Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O‘ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVALENTLIK MASALASI.....	46

TARIX

1	Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G‘OYAVIY ASOSLARI”.....	51
2	Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li XIVA XONLIGI QOZILIK HUJJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....	55
3	Atayeva Dilfuza Pulatovna. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISH.....	57
4	Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI”.....	61
5	Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO‘YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA‘ZI MULOHAZALAR.....	65
6	Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....	71
7	Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O‘ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....	75
8	Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	82
9	Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....	88
10	Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....	94

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

PSIXOLOGIYA

- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHİYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLA VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

UDK: 94:902(575.1)


Yusupov Axmedjon Shonazarovich

Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrası

dotsenti., tarix fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: yusupov89a@mail.ru

**OROLBO'YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN
BA'ZI MULOHAZALAR.** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707490>**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada ilk temir davrida Orolbo'yi hududida yashagan ilk sak qabilalarining etno-madaniy genezisi, shakllanish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy madaniyatlar hisoblangan Tozabog'yob, Suvyorgan, Tagisken merosining saklar sivilizatsiyasi poydevori sifatida tutgan o'rni ko'rib chiqiladi. Arxeologik, antropologik va yozma manbalar qiyosiy o'rganilib, mintaqadagi ko'chmanchi va o'troq aholining bir-biriga o'zaro madaniy ta'siri xususida ba'zi ilmiy mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Orolbo'yi, saklar, etno-madaniy genezis, ilk temir davri, Tagisken, Uyg'orak, Chirik-Rabat madaniyati, ko'chmanchi sivilizatsiya, arxeologik manbalar.

Аннотация: В данной статье анализируются этнокультурный генезис, этапы формирования и отличительные особенности ранних сакских племен, обитавших в Приаралье в эпоху раннего железного века. Также рассматривается роль наследия местных культур, таких как Тазабагыяб, Суярган и Тагискен, в качестве фундамента сакской цивилизации. На основе сравнительного изучения археологических, антропологических и письменных источников излагаются научные соображения о взаимном культурном влиянии кочевого и оседлого населения региона.

Ключевые слова: Приаралье, саки, этнокультурный генезис, ранний железный век, Тагискен, Уйгарак, чирик-рабадская культура, кочевая цивилизация, археологические источники.

Abstract: This article analyzes the ethno-cultural genesis, formation stages, and distinctive features of the early Saka tribes who inhabited the Aral Sea region during the Early Iron Age. It also examines the role of the local cultural heritage, such as Tazabaghyab, Suyorgan, and Tagisken, as the foundation of the Saka civilization. Based on a comparative study of archaeological, anthropological, and written sources, scientific reflections are presented regarding the mutual cultural influence between the nomadic and sedentary populations of the region.

Keywords: Aral Sea region, Sakas, ethno-cultural genesis, Early Iron Age, Tagisken, Uygarak, Chirik-Rabat culture, nomadic civilization, archaeological sources.

Kirish (Introduction).

Qadimgi Yevroosiyo dashtlari va vohalarida kechgan etno-madaniy jarayonlar, xususan, ilk temir davrida shakllangan sak qabilaviy ittifoqlarining tarixi zamonaviy tarixshunoslik va arxeologiya fanining muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada Orolbo'yi mintaqasi alohida strategik ahamiyatga ega. Zero, ushbu hudud qadimdan ko'chmanchi chorvachilik sivilizatsiyasi bilan vohalardagi o'troq dehqonchilik madaniyati o'zaro tutashgan va o'zaro muloqotga kirishgan o'ziga xos hudud vazifasini o'tagan.

So'nggi yillarda Orolbo'yi hududidagi Tagisken, Uyg'orak, Chirik-Rabat, Balandi kabi ilk sak yodgorliklarida olib borilayotgan keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar, yangi artefaktlar va antropologik ma'lumotlar mintaqa aholisining etno-genezisi borasidagi mavjud nazariy qarashlarni qayta ko'rib chiqish hamda boyitish zaruratini tug'dirmoqda. Orolbo'yi ilk sak qabilalarining shakllanish asoslari, ularning mahalliy kech bronza davri madaniyatlari bilan vorisiylik aloqalari hamda tashqi etnik oqimlarning ushbu jarayonga ta'sirini o'rganish O'rta Osiyo davlatchiligi poydevorini to'g'ri anglash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada mavjud arxeologik manbalar, antik yozma matnlar va antropologik tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish orqali, Orolbo'yi ilk sak qabilalarining etno-madaniy shakllanish qonuniyatlari xususida ayrim ilmiy mulohazalar va xulosalar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review).

Orolbo'yi ilk sak qabilalarining etno-madaniy genezisi va moddiy madaniyatini tizimli o'rganish bevosita Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE) faoliyati bilan bog'liq. Mintaqada saklar davri yodgorliklarini ochish va ularning bronza davri madaniyatlari bilan aloqadorligini isbotlashda arxeolog olim S.P. Tolstovning xizmatlari beqiyosdir [1]. U Janubiy Orolbo'yi hududidagi sak-massaget qabilalarining joylashuv xaritasini tuzib, ularning mahalliy madaniy asoslarini ko'rsatib bergan.

Tagisken va Uyg'orak yodgorliklarida ko'p yillar davomida tadqiqotlar olib borgan O.A. Vishnevskaya [2] va M.A. Itina [3] o'z ilmiy xulosalarida ilk saklar madaniyatining shakllanishida shimoliy dasht Andronovo madaniyati va janubiy o'troq-voha madaniyatlari o'zaro ta'sirini arxeologik dalillar bilan asoslab berishgan.

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda Orolbo'yi saklarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanishi va shaharsozlik madaniyatini o'rganishda Chirik-Rabat yodgorligi alohida o'rin tutadi. Chirik-Rabat madaniyatining o'ziga xosligini arxeolog L.M. Levina tadqiqotlarida atroflicha tahlil etilgan [4].

Mustaqillik yillarida o'zbek va qoraqalpog'istonlik olimlar tomonidan Orolbo'yi ilk temir davri aholisining etno-madaniy tarixi yangi topilmalar asosida boyitildi. Xususan, M. Mambetullaev [5] va joriy davr arxeologlaridan nufuzli tadqiqotchi O. Do'schanov [6] o'z ishlarida Orolbo'yi sak-massaget qabilalarining qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy-siyosiy munosabatlari hamda hududdagi ilk urbanizatsiya jarayonlarining metodologik jihatlarini tahlil qilganlar.

Antropologik jihatdan Orolbo'yi saklarining etnik qiyofasini va kraniologik tizimini o'rganishda T.A. Trofimova [7] va K.X. Xodjayovlarning [8] tadqiqotlari muhim manba hisoblanadi. Ularning xulosalari saklarning mahalliy bronza davri aholisi bilan to'g'ridan-to'g'ri biologik-etnik aloqadorligini tasdiqlaydi.

M. Unterländer [9] va P.B. Damgaard [10] kabi xalqaro olimlar boshchiligida o'tkazilgan so'nggi paleogenetik tadqiqotlar sak-skif dunyosining kelib chiqishini aniqlab berdi. Ma'lum bo'lishicha, ularning genetik tarkibi uchta asosiy manbadan – qadimgi dasht chorvadorlari, Yevropaning ilk dehqonlari va Sibir aholisi genofondining qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini ob'ektivlik, tarixiylik va tizimlilik ilmiy prinsiplari tashkil etadi. Orolbo'yi ilk sak qabilalarining etno-madaniy genezisi murakkab va ko'p qirrali muammo bo'lganligi sababli, ishda an'anaviy tarixiy-arxeologik usullar hamda zamonaviy bioarxeologik yondashuvlar birlashuvidan iborat fanlararo metodologiya qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Yevroosiyo dashtlarining ilk temir davri ko'chmanchi qabilalari antik yozma manbalarda turli etnonimlar – skiflar, savromatlar, sarmatlar, daxlar, saklar va massagetlar nomi ostida qayd etilgan. Markaziy Osiyo hududlarida istiqomat qilgan aholi qadimgi fors matnlarida, xususan, Behistun kitobalarida umumiy ravishda “saklar” deb yuritilgan bo'lsa, antik yunon tarixshunosligida bu borada o'ziga xos terminologiya kuzatiladi [11]. Gerodot o'zining “Tarix” asarida forslar barcha skif qabilalarini saklar deb ataganini ta'kidlab [12], Yevropa skiflari va Osiyo saklari o'rtasidagi etnik-madaniy yaxlitlikni ko'rsatib o'tgan.

Mintaqada faqat yirik konfederatsiyalar emas, balki Amudaryoning qadimgi o'zanlari bo'yida chorvachilik va baliqchilikni uyg'unlashtirgan apasiaklar [13], Sirdaryoning quyi oqimida harakat qilgan augasiylar hamda atasiylar kabi lokal guruhlar ham mavjud bo'lgan [1].

Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, skiflar dastlab Osiyo mintaqasida yashaganlar, biroq keyinchalik massagetlar bilan bo'lgan harbiy to'qnashuvlar va ijtimoiy-siyosiy bosimlar natijasida Araks daryosidan o'tib, g'arbgga ko'chishga majbur bo'lganlar [12]. Bu tarixiy dalillar skif-sak olamining yagona genetik ildizga ega bo'lgan ko'chmanchilar dunyosining turli hududiy tarmoqlari ekanligini tasdiqlaydi [14]. Iqlimiy o'zgarishlar va yaylovlar uchun kurash natijasida yuzaga kelgan ushbu yirik migratsiya jarayonlari transkontinental aloqalarga tayanuvchi murakkab tuzulishdagi ko'chmanchi sivilizatsiyaning yuzaga kelishiga asos bo'ldi [15].

Orolbo'yi mintaqasining ilk sak qabilalari madaniy taraqqiyot bosqichlari Quyi Sirdaryoning qadimiy Inkardaryo havzasidagi Uygarak va Janubiy Tagisken mozor-qo'rg'onlari, shuningdek, Sariqamish ko'li bo'yidagi Sakarchaga yodgorliklari misolida yaqqol ko'rinadi [3].

Akademik S.P. Tolstov Shimoliy Tagisken yodgorliklari materiallarida ikki xil madaniy an'ananing o'zaro ta'sirini qayd etadi [1]. Birinchi yo'nalishda qo'lda yasalgan geometrik naqshli sopollar orqali kechki bronza davri Andronovo-Tozabog'yob madaniyatining kulolchilik an'analari ko'rinsa, ikkinchi yo'nalishda xom g'ishtdan barpo etilgan monumental maqbaralar misolida janubiy o'troq sivilizatsiyalarning yuksak darajada rivojlangan me'moriy an'analari o'z aksini topgan. M.A. Itina ham Markaziy Osiyo dasht mintaqasida monumental me'morchilikning shakllanishi va xom g'ishtdan foydalanish ilk bor aynan shu yerda kuzatilganini aytib, bu jarayonda Baqtriya sivilizatsiyasining madaniy-texnologik ta'siri hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini ta'kidlaydi [3].

Ushbu qarashlarga muqobil ravishda L.T. Yablonskiy Shimoliy Tagisken me'morchiligining janubiy o'troq dehqonchilik sivilizatsiyalari bilan bevosita bog'liqligiga shubha bilan qaraydi va buni janubdan kelgan ustalar emas, balki mahalliy sak elitasining ichki ijtimoiy ehtiyojlari natijasida shakllangan o'ziga xos uslub deb hisoblaydi [16]. Qozog'istonlik arxeolog K.A. Akishev ham saklar madaniyati va tasviriy san'atining ildizlari janubiy o'troq sivilizatsiyalar ta'sirida emas, balki sof dasht chorvadorlari muhitida mustaqil shakllangan deb hisoblab, ichki evolyutsiya tamoyilini birinchi o'ringa qo'yadi [17].

Orolbo'yi ilk sak qabilalarining etnik qiyofasini aniqlashda Uygarak va Janubiy Tagisken kraniologik materiallari fundamental ahamiyatga ega. Antropologik tadqiqotlar natijasida ushbu yodgorliklarda dafn etilgan saklarning aralash yevropeoid-mongoloid irqiy tipiga mansubligi aniqlangan.

Taniqli antropolog T.A. Trofimovanning qayd etishicha, Sharqiy Orolbo'yi saklari rivojlanishida kuzatiladigan mongoloid elementlar mintaqaga Oltoy va Markaziy Osiyoning ichki hududlaridan amalga oshirilgan migratsion harakatlar natijasidir [7]. Qiziqarlisi shundaki, ushbu mongoloid antropologik belgilari asosan ayollarning bosh suyaklarida erkaklarinikiga nisbatan yaqqolroq aks etgan bo'lib, xuddi shunday holat Sakarchaga mozor-qo'rg'onlarida ham o'z tasdig'ini topgan [16]. Bu holat Orolbo'yi ilk sak qabilalari tarkibida kamida ikki genetik guruh mavjudligini ko'rsatadi va buni ilmiy jihatdan izohlashda boshqa qabiladan qiz olish an'analari yoki sharqiy hududlardan amalga oshirilgan maqsadli demografik migratsiyalar natijasi sifatida qarash mumkin.

Orolbo'yi saklarining etnogenezi va madaniy aloqalari ularning dafn marosimi an'analarning qiyosiy tahlilida ham yorqin namoyon bo'ladi. Janubiy Tagisken, Uygarak va Sakarchaga mozor-qo'rg'onlarida murdani kuydirish odati bilan bir qatorda, jasadlarni

to'g'riburchakli keng chuqur qabrlardagi qamish to'shamalar ustiga qo'yish an'anasi qayd etilgan bo'lib, qabr usti faqat shox-shabba va yog'och poyalari bilan yopilgan [3]. Bu holat Gerodot tomonidan tasvirlangan skiflarning dafn marosimlari haqidagi ma'lumotlar bilan to'liq hamohangdir [12]. Ayrim yirik va muhtasham qabrlarning tubida aniqlangan ikki qatorli ustun chuqurchalari esa o'ziga xos "marhumlar uylari" konstruksiyasini hosil qilib, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish yuqori bo'lganligini ko'rsatadi [1]. K.F. Smirnov bunday yaqinlikni sarmatlar va saklar o'rtasidagi intensiv etnomadaniy aloqalar natijasi deb baholaydi [18].

Orolbo'yi ilk sak qabilalarining etnik qiyofasini aniqlashda Uygarak va Janubiy Tagisken mozor-qo'rg'onlaridan olingan kraniologik materiallar fundamental ahamiyatga ega. Klassik antropologik tadqiqotlar natijasida ushbu yodgorliklarda dafn etilgan saklarning aralash yevropeoid-mongoloid irqiy tipiga mansubligi aniqlangan edi. Taniqli antropolog T.A. Trofimovning qayd etishicha, Sharqiy Orolbo'yi saklari populyatsiyasida kuzatiladigan mongoloid elementlar mintaqaga Oltoy va Markaziy Osiyoning ichki hududlaridan amalga oshirilgan migratsion harakatlar natijasidir [19]. Qiziqarlisi shundaki, ushbu mongoloid antropologik belgilari asosan ayollarning bosh suyaklarida erkaklarnikiga nisbatan yaqqolroq aks etgan bo'lib, xuddi shunday holat Sakarchaga mozor-qo'rg'onlarida ham o'z tasdig'ini topgan [20].

Bugungi kunda zamonaviy qadimgi DNK tahlillari (ancient DNA – aDNA) sak-massagetlarning shakllanishi borasidagi ushbu uzoq yillik antropologik bahslarga uzil-kesil oydinlik kiritdi. Paleogenetik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, saklar genetik jihatdan bir xil bo'lmagan. Ularning genofondi mahalliy Andronovo va Srubnaya madaniyatlari vakillari hamda Sharqiy Osiyo va Oltoy hududlaridan kelgan populyatsiyalarning murakkab qorishmasidan iborat bo'lgan [10].

Ushbu paleogenetik ma'lumotlar saklarning ham Yevropa skiflari, ham Sibir ko'chmanchilari bilan yaqin biologik qarindoshligini ko'rsatish bilan birga, Markaziy Osiyo saklari o'ziga xos mahalliy genetikaga ega ekanligini tasdiqladi [9]. Bu esa Orolbo'yi ilk sak qabilalari tarkibida kamida ikki genetik guruh mavjudligini anglatuvchi antropologik xulosalarni zamonaviy tabiiy-ilmiy metodlar darajasida isbotlaydi hamda o'zbek xalqi etnogenezidagi tarixiy-biologik uzviylikni namoyon etuvchi muhim dalil bo'lib xizmat qiladi. Mintaqadagi ushbu murakkab genetik muloqot va qovushish jarayonlarini ilmiy jihatdan izohlashda boshqa qabiladan qiz olish an'analari yoki sharqiy hududlardan amalga oshirilgan maxsus demografik migratsiyalar asosiy omil sifatida qaralishi lozim.

Xulosa (Conclusion).

Orolbo'yi mintaqasida yashagan ilk sak qabilalari bepoyon Yevroosiyo dashtlaridagi ulkan "skif-sak olami" sivilizatsiyasining eng muhim va strategik qismlardan biri bo'lgan. Qadimgi yozma manbalarda ularning saklar, massagetlar, apasiaklar yoki augasiylar kabi turlicha nomlar bilan tilga olinishi bu hududda yagona bir xil xalq emas, balki o'ziga xos boshqaruv tizimi va ichki hayot tarziga ega bo'lgan murakkab qabila ittifoqlari yashaganidan dalolat beradi. Arxeologik qazishmalar, xususan, Shimoliy Tagisken va Uyg'orak yodgorliklari ilk saklar madaniyatining poydevori ko'p qirrali bo'lganini ko'rsatadi. Bu madaniyatning shakllanishida, bir tomondan, shu hududda bronza davrida yashagan mahalliy chorvador ajdodlarning merosi mantiqiy davom etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, janubdagi qadimiy dehqonchilik vohalari, xususan, boy Baqtriya sivilizatsiyasining qurilish va hunarmandchilik an'analari kuchli ta'sir ko'rsatgan. Muhtasham me'moriy qabr inshootlarining barpo etilishi saklar jamiyatida o'sha davridayoq kuchli ijtimoiy tabaqalanish va professional harbiy boshliqlar qatlami ajralib chiqqanini isbotlaydi. Sak qabilalarining hayot va xo'jalik tarzi ular yashagan tabiat va suv manbalariga to'liq moslashgan edi. Masalan, Quyi Sirdaryo havzasida yashagan guruhlar doimiy ko'chib yuruvchi ekstensiv chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, gidrologik sharoiti boshqacharoq bo'lgan Sariqamish ko'li va Amudaryoning qadimgi Davdon o'zani atrofidagi aholi yarim o'troq hayot kechirib, chorvachilikni lalmikor dehqonchilik bilan uyg'unlashtirgan aralash xo'jalik tizimini yaratganlar. Aholining bosh suyaklarini o'lchash va zamonaviy qadimgi DNK tahlillarining o'zaro sintezi Orolbo'yi saklarining biologik kelib chiqishi bir xil bo'lmaganini uzil-kesil tasdiqladi. Ularning genofondi mahalliy bronza davri aholisi hamda Oltoy, Sibir va Sharqiy Osiyodan turli davrlarda ko'chib kelgan populyatsiyalarning murakkab qorishmasidan hosil bo'lgan. Qabrlardan topilgan

ayol suyaklarida sharqona belgilarning ko'proq ko'zga tashlanishi saklar jamiyatida uzoq hudud qabilalari bilan nikoh aloqalari va maqsadli ko'chishlar faol kechganidan dalolat beradi. Eng muhimi, paleogenetik tadqiqotlar natijasida aniqlangan Markaziy Osiyo saklariga xos bo'lgan o'ziga xos mahalliy genetika ushbu qadimgi aholi va bugungi o'zbek xalqining shakllanishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri biologik va tarixiy vorisiylik zanjiri mavjudligini ilmiy jihatdan isbotlovchi eng mustahkam va rad etib bo'lmaz dalildir. Ko'chmanchi va o'troq madaniyatlar chorrahasida kechgan bu murakkab etno-madaniy integratsiya jarayonlari keyingi davrlarda mintaqamizda ilk davlatchilik tizimlarining qaror topishi uchun mustahkam etnik poydevor vazifasini o'tagan.

Foydalanilgan manbalar:

1. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – С. 48-65; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Изд-во Восточной литературы, 1962. – С. 136-150.
2. Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи (по материалам Уйгарака). – Москва: Наука, 1973. – С. 92-110.
3. Итина М.А. Саки Нижней Сырдарьи (по материалам могильника Тагискен) // Советская археология. – 1967. – № 2. – С. 81-97.
4. Левина Л.М. Этнокультурная история Приаралья. Дильвижский период (I тыс. до н.э. – первые века н.э.). – Москва: Наука, 1996. – С. 45-72.
5. Мамбетуллаев М. Приаралье в системе этнокультурных связей древней Средней Азии // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. – Нукус, 1998. – № 3. – С. 12-18.
6. Do'schanov O. Qadimgi Xorazm va Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining madaniy aloqalari // O'zbekiston arxeologiyasi. – Samarqand, 2019. – № 2 (19). – В. 34-41.
7. Трофимова Т.А. Древнее население Хорезма по данным антропологии // Материалы Хорезмской экспедиции. Вып. 2. – Москва: Наука, 1959. – С. 55-89.
8. Ходжайов К.Х. Антропология древнего населения низовьев Амударьи // Археология и антропология Приаралья. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 102-118.
9. Unterländer M., Frisoati F., Ignasiak M. et al. Ancestry and demography and descendants of Iron Age nomads of the Eurasian Steppe // Nature Communications. – 2017. – Vol. 8. – Article No. 14615. – pp. 1-14.
10. Damgaard P.B., Marchi N., Rasmussen S. et al. 137 ancient human genomes from across the Eurasian steppes // Nature. – 2018. – Vol. 557. – pp. 369–374.
11. Dandamayev M.A. Data on the Tribes of the Saka // History of Civilizations of Central Asia. Vol. II. – Paris: UNESCO Publishing, 1994. – P. 27-35.
12. Геродот. История в девяти книгах / Перевод и примечания Г.А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – Кн. VII, 64. – С. 336.
13. Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции: Источниковедческий анализ. – М.: Восточная литература, 1997. – С. 138-142.
14. Хазанов А. М. Кочевники и внешний мир. – Алматы: Дайк-Пресс, 2002. – С. 114-118.
15. Кузьмина Е. Е. Экология степей Евразии и проблема происхождения номадизма. II. Возникновение кочевого скотоводства // Вестник древней истории. – М.: 1997. – № 2. – С. 81-85.
16. Яблонский Л.Т. Проблема формирования культуры саков Приаралья // Российская археология. – 1999. – № 2. – С. 64-70.
17. Акишев К.А. Искусство и мифология саков. – Алма-Ата: Наука, 1984. – С. 42-48.
18. Смирнов К.Ф. Сарматы и их связи с саками // Советская археология. – 1970. – № 3. – С. 18-25.

19. Трофимова Т.А. Черепа из могильника раннего железного века Уйгарак // Культура сакских племен низовьев Сырдарьи. – М.: Наука, 1973. – С. 144-156.
20. Яблонский Л.Т. Антропология населения сакского времени Южного Приаралья // Археология и антропология Приаралья. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 84-95.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].